



TURIZM INDUSTRIYASINING IQTISODIYOTDAGI ROLI VA IMKONIYATLARI.

Ilmiy rahbar: Shermuxamedov Begzod

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pazliddinova Iroda Fayzidin qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Buxgalteriya hisobi fakulketi talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada turizm industriyasining iqtisodiyotdagi o'rnini va ahamiyati yoritib berilgan. Xususan, turizmning yalpi ichki mahsulot o'sishiga ta'siri, yangi ish o'rinlari yaratishdagi ahamiyati, xizmatlar eksportidagi ulushi hamda investitsiyalarni jalb qilishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Shu bilan birga, turizmning hududiy infratuzilmani rivojlantirishga, mahalliy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga va mamlakat xalqaro imijini oshirishga qo'shadigan hissasi ko'rsatib berilgan. Ushbu maqolada pandemiyadan keyingi global o'zgarishlar natijasida turizm sohasida paydo bo'lgan yangi yo'nalishlar – raqamli turizm, ekoturizm, madaniy va ziyorat turizmi kabi yo'nalishlar tahlil etilgan. Bundan tashqari, turizm davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiya loyixalarini amalga oshirishning ahamiyati, barqaror rivojlanish strategiyalari hamda yangi imkoniyatlarni amalga oshirish yo'llari muhokama qilingan.*

Kalit so'zlar: *Turizm industriyasi, iqtisodiy o'sish, investitsiya, raqamli turizm, ekoturizm, madaniy turizm, ziyorat turizmi, infratuzilma, xizmatlar eksporti, barqaror rivojlanish.*

Аннотация. *В данной статье освещаются роль и значение туристической индустрии в национальной экономике. В частности, проанализировано влияние туризма на рост валового внутреннего продукта, его значение для создания новых рабочих мест, вклад в экспорт услуг и возможности привлечения инвестиций. Также показана роль туризма в развитии региональной инфраструктуры, поддержке местного предпринимательства и повышении международного имиджа страны. В статье рассмотрены новые направления, появившиеся в сфере туризма в результате глобальных изменений после пандемии — цифровой туризм, экотуризм, культурный и паломнический туризм. Кроме того, обсуждаются вопросы реализации инвестиционных проектов на основе государственно-частного партнёрства, стратегии устойчивого развития и пути реализации новых возможностей.*

Ключевые слова: *туристическая индустрия, экономический рост, инвестиции, цифровой туризм, экотуризм, культурный туризм, паломнический туризм, инфраструктура, экспорт услуг, устойчивое развитие.*



Abstract. *This article examines the role and significance of the tourism industry in the national economy. In particular, it analyzes tourism's impact on GDP growth, its importance in creating new jobs, its contribution to services exports, and its potential to attract investment. It also highlights tourism's contribution to the development of regional infrastructure, support for local entrepreneurship, and the enhancement of the country's international image. The article examines new directions that have emerged in the tourism sector as a result of global changes following the pandemic — digital tourism, ecotourism, cultural tourism, and pilgrimage tourism. Additionally, it discusses the importance of implementing investment projects based on public-private partnerships, sustainable development strategies, and ways to realize new opportunities.*

Keywords: *tourism industry, economic growth, investment, digital tourism, ecotourism, cultural tourism, pilgrimage tourism, infrastructure, services exports, sustainable development.*

Kirish

Bugungi kunda turizm xizmatlarini rivojlantirish jahon iqtisodiy-ijtimoiy hayotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. U iqtisodiyotni rivojlantirish bilan birga mahalliy aholining ish bilan bandligini ta'minlash, shu orqali turmush darajasini yaxshilash, xorijiy turistlarni jalb qilish, tarixiy yodgorliklarni asrab avaylash kabi ishlarga salmoqli hissa qo'shish imkoniyatini kengaytiradi. Jahonda bugungi kunda turizm aksariyat mamlakatlarda milliy iqtisodiyotga salmoqli daromad keltiruvchi sohalardan biri hisoblanadi. Globalizatsiya jarayonlari, axborot texnologiyalarining keng qo'llanilishi va transport infratuzilmasining takomillashuvi natijasida turizm xalqaro iqtisodiy munosabatlarning muhim omiliga aylandi. Turizm nafaqat mamlakatning iqtisodiy o'sishini ta'minlaydi, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, xorijiy valyuta tushumlarini oshirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va milliy madaniyatni targ'ib etishning samarali vositasi hisoblanadi. BMT Jahon sayyohlik tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, mazkur soha xizmatlarini ko'rsatishdan tushadigan daromad 1,5 trillion AQSH dollarini tashkil etmoqda. Dunyo yalpi ichki mahsulotining 10 foizidan ko'prog'i, jahon eksportining 7 foizdan ziyodi, umumiy bandlik ko'rsatkichining esa 8 foizga yaqini aynan shu soha hissasiga to'g'ri keladi.

Turizm dunyoda har yili milliardlab dollar daromad keltiradigan yirik sanoatga aylandi. Biroq, sanoatning ko'plab afzalliklariga qaramay, hal qilinishi kerak bo'lgan ba'zi muammolar mavjud. Bu muammolarga aholining haddan tashqari ko'pligi, atrof-muhitga inson tomonidan yoki boshqa omillar ta'siri natijasida zarar yetishi, madaniy eroziya ya'ni bir xalqning milliy qadriyatlari, urf-odatlar, tili, san'ati va an'alarining yo'qolib borishi yoki o'zgarishi va xavfsizlik bilan bog'liq muammolar kiradi. Yaxshiyamki, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ushbu muammolarni hal qilish uchun foydalanish mumkin bo'lgan bir qator



yechimlarni taqdim etdi. Turizm dunyoning ko'plab mamlakatlarida iqtisodiy o'sish, ish o'rinlari yaratish va qashshoqlikni kamaytirishning muhim omili hisoblanadi. Bu, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda valyuta tushumlari va bandlik imkoniyatlarini yaratish orqali jahon iqtisodiyotiga hissa qo'shadi. Biroq, turizm sayyohlik maskanlari sifatida foydalaniladigan jamoalar va ekotizimlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, turizmning o'sishi aholining haddan tashqari ko'payishiga, tabiiy va madaniy resurslarning tanazzulga uchrashiga olib kelishi mumkin. Bu atrof-muhitning ifloslanishi, o'rmonlarning kesilishi va tuproq eroziyasi kabi salbiy ta'sirlarga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, madaniy eroziya mahalliy urf-odatlar va an'analar turistik maqsadlarda o'zgartirilganda yuzaga kelishi mumkin, bu esa haqiqiylik va madaniy o'ziga xoslikni yo'qotishiga olib keladi. Turizm, shuningdek, mahalliy jamoalarni kasalliklarning tarqalishi va ijtimoiy tartibsizliklar kabi salbiy ijtimoiy ta'sirlarga duchor qilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida ham turizmni rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. So'nggi yillarda turizm infratuzilmasini yaxshilash, vizasiz rejimni kengaytirish, madaniy meros obyektlarini tiklash va yangi turistik yo'nalishlarni ochish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Natijada mamlakatga tashrif buyuruvchi xorijiy sayyohlar soni ortib, turizmning iqtisodiyotdagi ulushi sezilarli darajada oshib bormoqda.

O'zbekiston turizm sohasida ulkan salohiyatga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Yurtimizda 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud va ularning aksariyati YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan. Lekin sohadagi mavjud muammolar tufayli turizm sohasi biroz oqsamoqda. Mavjud muammolarni hal qilish orqali O'zbekiston Respublikasining turizm salohiyatini yanada oshirishga erishish mumkin. YaIM hajmining oshishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili.

So'nggi yillarda turizm sohasining iqtisodiyotdagi roli masalasi ko'plab iqtisodchi olimlar, xalqaro tashkilotlar va mustaqil tadqiqotchilar tomonidan chuqur o'rganilmoqda. Chunki turizm sohasi nafaqat valyuta tushumlarini ta'minlovchi, balki bandlik, xizmatlar eksporti va hududiy rivojlanishning muhim drayverlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda turizmning iqtisodiyotdagi o'rnini, uning YaIMga qo'shgan hissasi hamda yangi imkoniyatlar yaratuvchi mexanizmlariga alohida e'tibor qaratilgan.

V. O. G'ofurova o'zining "The role of tourism industry in the country's economy" nomli maqolasida turizmning iqtisodiy o'sishdagi o'rnini tahlil qilib, sohaning eksport yo'nalishidagi salohiyatini ochib bergan. Muallifning fikricha, turizm sohasi milliy daromadni oshirish, xizmatlar sektorini kengaytirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, maqolada barqaror turizm, ekologik



xavfsizlik va madaniy merosni asrash bilan bog'liq iqtisodiy muammolar ham tahlil etilgan.³

R. T. Adilchayev esa "Importance of Tourism in the Economic Development of Uzbekistan" asarida O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotida turizmning tutgan o'rnini makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida o'rganadi. U so'nggi yillarda mamlakatda turizm xizmatlari eksporti, xorijiy sayyohlar oqimi, mehmonxona infratuzilmasi hamda transport tizimidagi islohotlar natijasida YaIM o'sishiga sezilarli hissa qo'shilganini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, O'zbekistonda turizmning yangi segmentlari – ekologik, ziyorat, tibbiy va agroturizm yo'nalishlarini rivojlantirish kelajakdagi iqtisodiy o'sish omili bo'lishi mumkin.

M. Xaydarova, D. Yusupova va boshqalar tomonidan yozilgan "The impact of tourism on the economy of Uzbekistan" nomli maqolada turizmning YaIMdagi ulushi, to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita bandlik darajasi, shuningdek, xizmatlar eksporti tarkibidagi o'rni statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda 2018–2023 yillar oralig'ida turizm xizmatlari eksporti 2,5 barobarga oshgani va bu milliy iqtisodiyotning diversifikatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatgani qayd etilgan.

M. Daminov esa "The Importance of Domestic Tourism Evolve in Uzbekistan in the Socio-Economic Life of the Country" nomli maqolasida ichki turizmga alohida urg'u beradi. Muallifning fikricha, ichki turizm mamlakat ichidagi iqtisodiy faollikni oshirish, mintaqalararo transport infratuzilmasini rivojlantirish va milliy o'zlikni mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Maqolada ichki turizmning hududiy bandlik va kichik biznes rivojiga ta'siri misollar asosida yoritilgan.

Shuningdek, X. Abdurahmonova "Tourism as a driver of sustainable economic growth in Uzbekistan" nomli tadqiqotida O'zbekistonning turizm siyosati, davlat dasturlari va milliy brend yaratish strategiyalarini o'rganadi. U turizmning iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli bilan bir qatorda, ekologik va ijtimoiy masalalarga e'tibor qaratish zarurligini qayd etadi.

Xorijiy adabiyotlarda turizmning iqtisodiy o'sishga ta'siri masalasi keng o'rganilgan. Masalan, UNWTO (2022) ma'lumotlariga ko'ra, global turizm sanoati jahon yalpi ichki mahsulotining 10 foizdan ortig'ini tashkil etadi va har to'rtinchi yangi ish o'rni aynan turizm sohasi orqali yaratilmoqda.

Shuningdek, World Travel & Tourism Council (WTTC) hisobotlarida (2023) ta'kidlanishicha, turizm sektori pandemiyadan keyingi davrda jahon iqtisodiyotining eng tez tiklanuvchi sohalaridan biri bo'lib, kelgusi 5 yil ichida 400 milliondan ortiq yangi ish o'rni yaratishi prognoz qilinmoqda.

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, turizm sohasi iqtisodiy o'sishni jadallashtiruvchi, yangi investitsiyalarni jalb etuvchi va xalqaro savdo balansini

³ V. O. G'ofurova. "The role of tourism industry in the country's economy". Vol. 1 No. maxsus son (2023): maxsus son: "Smart-turizm: Xorijiy tajriba va uni O'zbekistonda qo'llash istiqbollari" (497-499).



mustahkamlovchi muhim tarmoqdir. O‘zbekiston sharoitida esa so‘nggi yillardagi islohotlar, elektron viza tizimi, yangi yo‘nalishlarning ochilishi va “yashil turizm” konsepsiyasining tatbiqi bu sohaning strategik ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda.

Tahlil va natijalar:

O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, turizm industriyasi mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri sifatida barqaror rivojlanish va yangi ish o‘rinlari yaratishda katta ahamiyatga ega. Turizm sohasi nafaqat milliy daromadni oshiradi, balki xorijiy sarmoyalarni jalb etadi, infratuzilma rivojlanishini tezlashtiradi va madaniy almashinuvni kuchaytiradi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston va boshqa davlatlar tajribasidan kelib chiqib aytish mumkinki, turizmni diversifikatsiya qilish, ekologik va madaniy yo‘nalishlarni rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘sinh sur‘atlarini barqarorlashtirish mumkin. Shu bilan birga, turizm sohasidagi davlat siyosatini modernizatsiya qilish, xizmatlar sifatini oshirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish iqtisodiy samaradorlikni yanada kuchaytiradi.



1-rasm.⁴ O‘zbekiston Respublikasida turizm iste‘moli dinamikasi

2019–2023-yillar oralig‘ida O‘zbekiston Respublikasida turizm iste‘moli dinamikasi keskin o‘zgarishlarga uchragan. Jadvaldagi raqamlar bu davrda ichki va tashqi omillar ta‘sirida turizm bozorida sezilarli tebranishlar bo‘lganini ko‘rsatadi.

2019-yil – Turizm sohasida barqaror o‘sinh davri bo‘lib, bu yilda turistik xizmatlar va mahsulotlar iste‘moli yuqori bo‘lgan. Turizm infratuzilmasining kengayishi, xalqaro tanlov va forumlarning o‘tkazilishi mamlakatga kiruvchi turistlar sonini ko‘paytirgan.

2020-yil – Pandemiya yili sifatida turizm iste‘moli keskin kamaygan. Karantin cheklovlari, xalqaro parvozlarning to‘xtatilishi va ichki harakatlanishdagi cheklovlar

⁴ 1-rasm. www.stat.uz ma‘lumotlari asosida shakllantirildi.



natijasida iste'mol hajmi bir necha barobarga qisqargan. Bu holat butun dunyo turizmi uchun xos inqiroz davri bo'lgan.

2021-yil – Sekin-asta tiklanish davri. Chegaralarning ochilishi va ichki turizmning rivojlantirilishi natijasida iste'mol hajmi oshgan. Shu davrda davlat tomonidan turizmi rag'batlantirishga oid qator imtiyozlar, subsidiyalar va reklama kampaniyalari yo'lga qo'yilgan.

2022–2023-yillar – Turizm sohasida yuqori o'sish bosqichi kuzatilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda turizm iste'moli 2019-yilga nisbatan bir necha barobar oshgan. Bu, birinchidan, **xalqaro turistlarning qaytishi**, ikkinchidan, **ichki turizmning jadal rivoji** bilan izohlanadi. Shuningdek, “Yangi O'zbekiston” konsepsiyasi doirasida infratuzilmani modernizatsiya qilish, elektron vizalar joriy etilishi, turistik yo'nalishlarning diversifikatsiyasi ham iste'molning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

2019–2023-yillar oralig'ida turizm iste'moli O'zbekiston iqtisodiyotining muhim drayverlaridan biriga aylangan. Pandemiya tufayli yuzaga kelgan qisqa muddatli pasayishdan so'ng, soha tez tiklanib, iqtisodiyotga valyuta tushumlari, bandlik darajasining o'sishi va xizmatlar sektorining kengayishi orqali sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Muhokama va takliflar:

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, turizm sohasi nafaqat xizmatlar sektorining muhim tarkibiy qismi, balki iqtisodiy o'sish, bandlik va hududiy rivojlanishning strategik omillaridan biri hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni tasdiqlaydiki, turizmning barqaror rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston misolida ham so'nggi yillarda turizm industriyasi davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. 2016-yildan boshlab “Harakatlar strategiyasi”, “Yangi O'zbekiston” taraqqiyot strategiyasi, shuningdek, “Turizm to'g'risida”gi Qonunning qabul qilinishi sohada huquqiy va institutsional asoslarni yaratdi. Natijada turizm sohasi YaIMda o'z ulushini oshirib, 2024-yilda xizmatlar sektorining 12 foizini tashkil etgan.

Biroq mavjud adabiyotlarda qayd etilganidek, mamlakatimizda turizmning iqtisodiyotdagi salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishda bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Bular qatoriga turizm infratuzilmasining notekis rivojlanishi, malakali kadrlar yetishmovchiligi, raqamli texnologiyalarning to'liq joriy etilmaganligi hamda xalqaro marketing mexanizmlarining sustligi kiradi. Shu sababli, iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. **Hududiy turizm klasterlarini shakllantirish.** Har bir mintaqada tabiiy, tarixiy va madaniy resurslarga asoslangan klasterlar yaratish orqali hududiy iqtisodiy



faollikni oshirish, mahalliy tadbirkorlikni rag'batlantirish va yangi ish o'rinlari yaratish mumkin.

2. **Raqamli turizm (e-tourism) tizimini rivojlantirish.** Turizm xizmatlarini onlayn bron qilish, virtual gidlik, to'lov tizimlari va mobil ilovalarni keng joriy etish orqali xorijiy sayyohlar uchun qulay sharoit yaratish lozim. Bu yondashuv "smart tourism" konsepsiyasi asosida iqtisodiy samaradorlikni oshiradi (Buhalis, 2020).

3. **Ekologik va barqaror turizmni qo'llab-quvvatlash.** Yashil iqtisodiyot tamoyillarini turizm sohasiga tatbiq etish — chiqindisiz turizm, energiya tejamkor mehmonxonalar va mahalliy ekologik mahsulotlardan foydalanish orqali iqtisodiy va ekologik muvozanatni ta'minlaydi.

4. **Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish tizimini kuchaytirish.** Turizm sohasida xizmat sifati bevosita inson kapitaliga bog'liq. Shu sababli oliy ta'lim muassasalari, kollejlari va xalqaro tashkilotlar hamkorligida yangi o'quv dasturlarini ishlab chiqish zarur.

5. **Ichki turizmni rivojlantirishni rag'batlantirish.** Ichki turizmning rivojlanishi nafaqat mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlaydi, balki milliy birlikni mustahkamlash, madaniy merosni asrash va xizmatlar sektorini diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi (Daminov, 2024).

6. **Xalqaro hamkorlikni kengaytirish.** O'zbekistonning turizm salohiyatini jahon bozorida targ'ib etish uchun UNWTO, WTTC va ICOMOS kabi xalqaro tashkilotlar bilan strategik hamkorlikni kuchaytirish zarur.

7. **Moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish.** Turizm loyihalarini imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va soliq yengilliklari orqali rag'batlantirish iqtisodiy o'sishni jadallashtiradi va investorlar ishonchini oshiradi.

Turizm industriyasi O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida, yangi ish o'rinlari yaratishda, eksport salohiyatini oshirishda va mamlakat imijini mustahkamlashda strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ilmiy adabiyotlarda keltirilgan tajribalar asosida aytish mumkinki, turizm sohasining iqtisodiyotdagi rolini yanada kuchaytirish uchun raqamli transformatsiya, hududiy integratsiya va ekologik yondashuvni uyg'unlashtirish eng muhim yo'nalishlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. V. O. G'ofurova. "The role of tourism industry in the country's economy". Vol. 1 No. maxsus son (2023): maxsus son: "Smart-turizm: Xorijiy tajriba va uni O'zbekistonda qo'llash istiqbollari" (497-499).
2. Adilchaev, R. T. (2023). *Importance of Tourism in the Economic Development of Uzbekistan*. Journal of Economics, Assets, and Evaluation, Vol.2 No.1, 8 s.



3. Karimov, M., Okmullaev, R., Marty, P., Saidmamatov, O. (2025). *Tourism Sustainability in Uzbekistan: Challenges and Opportunities Along the Silk Road*. *Economies*, 13(9), article 250.

4. Davlat statistika qo'mitasining rasmiy websayti: www.stat.uz.

5. Kim, T. V., Yusupova, I. F. (2024). *Measures to Promote Uzbekistan as a Tourist Destination on The International Stage*. *American Journal of Economics and Business Management*.